

D'ZB.2
81
V-13

A.A. UBAYDULLAYEV
M.S. MIRSOATOVA



O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI



VZ6.2
81
V-23

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

A.A.UBAYDULLAYEV, M.S.MIRSOATOVA

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

O'QUV QO'LLANMA

(Seminar mashg'ulotlar uchun materiallar)

Toshkent
“Ma'rifat”
2023



UO'K: 811.512.133'28(075.8)

KBK: 81.2O'zb-67

U 13

Ubaydullayev A.A., Mirsoatova M.S. O'zbek dialektologiyasi.

O'quv qo'llanma. -T.: "Ma'rifat", 2023. 164 bet.

"O'zbek dialektologiyasi" (seminar mashg'ulotlar uchun materiallar) nomli ushbu o'quv qo'llanma oly o'quv yurtlari 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlanib, 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishining DTS hamda "O'zbek dialektologiyasi" fani dasturi asosida ishlab chiqildi.

O'quv qo'llanmada "O'zbek dialektologiyasi" fanining o'quv va ishchi dasturidagi mavzular bo'yicha tashkil etiladigan seminar mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar tizimi tavsiya etildi.

O'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti kengashida muhokama etilib, nashrga tavsiya etilgan.

UO'K: 811.512.133'28(075.8)


KBK: 81.2O'zb-67

U 13

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Kengashining 2023-yil 31-maydagi 10-sonli qaroqiga asosan nashrga ruxsat berilgan. Ro'yxatga olish raqami 94.

ISBN: 978-9910-9692-3-2

© "Ma'rifat" nashriyoti, Toshkent, 2023 y.



SO'ZBOSHI

“O'zbek dialektologiyasi” fani Oliy o'quv yurtlarining universitet va pedagogika institutlari filologiya fakulteti bakalavriat bo'limlarida namunaviy o'quv dasturi asosida o'qitilishi rejalashtirilgan. Universitetning 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lif yo'naliшining ikkinchi kurs, I semestrda kredit model tizimi asosida o'quv dasturiga binoan o'qitiladi. Ushbu o'quv qo'llanmaga mazkur kurslarda o'tkaziladigan o'zbek dialektologiyasi fanidan mashg'ulotlar mavzusi va mashg'ulot ishlamalari matni saralab olingan, zarur darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy adabiyotlar jamlanib oxirida ko'rsatilgan.

Ma'lumki, ilgari o'rta maktab o'quvchilari va oily o'quv yurti talabalari uchun va mustaqil o'rganuvchilarga mo'ljallangan V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978; Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996; To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004; Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013; Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – T.: “Navro'z”, 2016; Ashurboyev S. O'zbek dialektologiyasi. –Toshkent, Nodirabegim, 2021; Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012; Q.Olloyorov. Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari (o'quv-uslubiy qo'llanma) - Toshkent, “Adabiyot uchqunlari”, 2020; D.Nasriyeva. Areal lingvistika: lingistik xarita va atlaslar (Toshkent, “Adast poligraf”, 2021) kabi darslik o'quv-uslubiy qo'llanma va monografiyalar

mutaxassislar tomonidan dastur asosida tayyorlanib, bir necha bor nashr etilgan.

Mazkur ish O'zbek dialektologiyasi fanidan seminar mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan mashg'ulotlarda foydalanish mumkin bo'lgan o'quv qo'llanma hisoblanadi.

"O'zbek dialektologiyasi" fanidan o'quv rejasiga muvofiq talabalarning mustaqil ishlashlarini tashkil etish, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish hamda ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ajratilgan barcha o'quv soatlari seminar mashg'ulotlari o'tish uchun rejalashtirilgan.

"O'zbek dialektologiyasi" fanidan tashkil etiladigan seminar mashg'uloti darslarida talabalarning mashg'ulot davomida egallagan nazariy bilimlarini mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish hamda ko'nikma hosil qilish maqsadida o'tilayotgan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda tahlillar, tajribalar olib borish masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda o'qitishning eng ilg'or usullaridan foydalanib ilmiy-nazariy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan holda tashkil etish ko'zda tutiladi.

"O'zbek dialektologiyasi" fanidan olib boriladigan seminar mashg'ulotlari avvalo, talabalarning o'qituvchi hamkorligi va nazoratida olib boriladigan o'quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan mashg'ulot shaklidir. Dars mashg'uloti davomida bajariladigan ishlarning o'qituvchi nazorati ostida amalga oshirilishi mavzuga oid ilmiy xulosalarning talabalar tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga yaqindan yordam beradi. Seminar

tovushlarning yozuvda ifodalanishi va ularning ko‘rinishlari, faktik misollarni qiyoslash asosida umumiy xulosa chiqarish, turli jadvallar bilan ishslash, shevaga xos so‘zlarni dialektologik izohli lug‘at yordamida aniqlash, har bir so‘zning ma’nosini izohlash, shevaga xos so‘zlarning talaffuzi va imlosini uzohlash, matnni lingvistik tahlil qilish, shevaga xos matnlar ustida ishslash, ilmiy va uslubiy manbalar ustida ishslash va ularga munosabat bildirish, ilmiy sharhlar yozish, joriy imlodan transkripsiyaga va transkripsiyadan joriy imloga tabdil qilish, har bir matndagishevaga oid so‘zlar lug‘ati ustida ishslash, mavzuga oid testsavollari kabi turli topshiriqlar ishlab chiqilgan. Mashg‘ulot davomida o‘qituvchi ulardan ma’qulini (talabalarning bilim darajasi, mavzuni o‘zlashtirishiga qarab, belgilangan vaqt va ajratilgan soatga qarab) ixtiyoriy tanlab, o‘quv mashg‘ulotini tashkil etishi mumkin. Shuningdek, “O‘zbek dialektologiyasi” fani bo‘yicha nashr qilingan (Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi; Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi; B.To‘chiboyev, B.Hasanov. O‘zbek dialektologiyasi; Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi kabi) darslik va o‘quv qo‘llanmalardan olingan matnlar berilib, ayrim topshiriqlar va badiiy asarlardan olingan matnlar ustida ishslash ham tavsiya etilgan.

O‘quv qo‘llanma shu fanni to‘liq qamrab olgan bo‘lib, fandan seminar mashg‘ulotlarni o‘tishda foydalanishni ko‘zda tutadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika fakulteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasи dotsenti, f.f.nomzodi A.A.Ubaydullayev va f.f.nomzodi, dotsent v.b. M.S.Mirsoatovalar tomonidan tayyorlangan bo‘lib, Mirzo

Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika fakulteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi dotsenti A.Ubaydullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek dialektologiyasi”fani namunaviy o‘quv dasturi (28.08.2018 yil № 1-son qarori bilan tasdiqlangan) asosida ishlab chiqilgan hamda 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablarga muvofiqlashtirilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani tuzishda fanni o‘qitishda shu kunga qadar erishilgan ilmiy va uslubiy natijalar hamda so‘nggi nazariy xulosalar ham e’tiborga olingan.

O‘quv qo‘llanma oily o‘quv yurtlari 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga “O‘zbek dialektologiyasi” fanini o‘rgatish bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlarni o‘tishda asosiy manba vazifasini o‘taydi.

1-seminar mashg‘uloti

**Transkripsiya. Shevaga oid matnlarni transkripsiyada
yozish va o‘qish.**

Mavzu yuzasidan quyidagi nazorat savollariga javob bering:

1. Transkripsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Diakritik belgi nima?
3. Transkriptsiyaning qanday turlari bor?
4. Transliteratsiya deb nimaga ataladi?
5. Fonetik transkriptsiyaning ahamiyati nimada?
6. Fonologik transkriptsiyaning vazifasi nimadan iborat?
7. Transkriptsiyaning tuzilishi haqida gapirib bering.
8. Unli tovushlarni ifodalash uchun qanday transkription belgilar qabul qilingan?
9. Old qator unlilarini ifodalashda qaysi belgilar qo‘llanadi?
10. Orqa qator unlilarini ifodalashda qaysi belgilardan foydalaniadi?
11. O‘zbek tilidagi undosh tovushlar transkriptsiyada qanday ifodalananadi?
12. Yangi va an’anaviy transkriptsiyada unlilarning berilishida qanday farq mavjud?
13. Undoshlarning transkriptsiyasidagi o‘xshashlik va farq nimada ko‘rinadi?
14. Shevalar qanday tamoyillar asosida tasnif qilinadi?
15. Y.D.Polivanov o‘zbek shevalari tasnifida qaysi tamoyilga asoslangan?
16. A.K.Borovkovning o‘zbek shevalari tasnifini izohlab bering.
17. G.O.Yunus qaysi lahjalarni belgilaydi?
18. K.K.Yudaxin o‘zbek shevalari tasnifining necha variantini yaratgan?
19. V.V.Reshetov tasnifining asosiy xususiyati nimada?
20. O‘zbek shevalarini dastlab qaysi olim tasnif qilishga musharraf bo‘lgan?

Mavzuga oid quyidagi asosiy tushunchalarining izohini

yozing:

Tayanch tushuncha	Izoh
<i>Transkriptsiya</i>	
<i>Transliteratsiya</i>	
<i>Transkriptsiun belgi</i>	
<i>Fonetik transkriptsiya</i>	
<i>Fonematisk transkriptsiya</i>	
<i>Velyarizatsiya</i>	
<i>Palatalizatsiya</i>	
<i>Indifferent</i>	
<i>Diakritik belgi</i>	
<i>Dialektolog</i>	
<i>Shevalarni tasnif qilish</i>	
<i>Metisatsiya</i>	
<i>Gibrildizatsiya</i>	
<i>Lingvistik klaster</i>	

Topshiriq: Guruhlarga bo'lingan holda quyidagi jadvallarni to'ldiring.

Unilar uchun transkripsion belgilar:

t/r	Unilar	Transkriptsiyasi

Undoshlar uchun transkripsion belgilar:

t/r	Undoshlar	Transkriptsiyasi

Topshiriq:o'z shevangizga oid so'zlardan 15 ta misol keltiring
va quyidagi jadvalni to'ldiring.

t/r	Shevaga oid so'zlar (transkripsiya)	Adabiy tilda
1		
2		
3		
4		
5		

Topshiriq:berilgan matnni o'qing, unli va undoshlarning ifodalanishini hamda mazmunini izohlang.

Qipchoq lahjası Qulota qishlog'i shevasi

Айт-айт Көрьм, қалқа айт, айт, айткан қалар.
Чулдъраган тъльңидь қатка салар.
Бул дүйнада *обиаган, күлгэн қалар.
Ардақлаган джаның ақыр алар.

*Оләп кайдаң чыгады сез бомаса,
Кым джетоләп джүрәдь көз бомаса,
Адамзатт бекенән комэрәкан,
Сарт тоқыган сарала бөз бомаса.

Аргмақтың балась ҳармайды,
Дәрь дыйдь докүраккә сарымайды,
Джакшыга айткан сөзың дасмайды,
Джаманға айткан сөзың парымайды.

Бешті бешкә коссаннар "ом боладь< ўн бүлади,
*Он токлының теръесь том боладь,<түн бүлади.
Джыгытте алган йарь джақшы боса,
Бър муратка джеткөң шо(л) боладь.

Topshiriq: berilgan matndan shevaga oid so‘zlarni toping va ma’nosini tushuntiring.

QOCHOQ

(“Ufq” trilogiyasidan parcha)

...Baxtiyor odam hammani o‘ziga o‘xshatadi. Ikromjon hozir shunday kayd yatda edi. Yor-birodarlar oldida yuzi yorug‘ bo‘ldi. Vatan uchun qilgan xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlandi.

U bu mukofotni o‘z qishlog‘ida, birga mehnat qilgan, birga ter to‘kkani jo‘ralari oldida ko‘kragiga taqdi. Hozir uning ko‘ziga boshqalar ham xuddi shunday baxtiyor, shunday shod tuyulardi. Hali majlisda qandaydir yaramas bir bola to‘g‘risida gap bo‘ldi. U yaramas bola armiyadan qochgan. Qishlog‘ini, ota-onasini xijolatga qo‘ygan. Negadir Ikromjon bunga uncha parvo qilmadi. Bu gaplarning unga mutlaqo aloqasi yo‘q. U taqdirlangan, zoye ketmagan mehnatlarining gashti bilan mast edi.

Klubdan chiqqan kishilar to‘da-to‘da bo‘lib simyog‘och tagida gaplashib turishibdi. Xotin-xalaj allaqachon tarqab ketgan. Tog‘a harbiy komissarlikdan kelgan leytenant bilan pachag‘i chiqqan qora “Emka” mashinasi oldida nimanidir shivir-shivir gaplashib turibdi.

Ikromjon ularning gapiga xalal bermaslik uchun yonlaridan tez o‘tib ketdi. U hozir samovarga kirim bitta choy ichmoqchi. Klub ichi dim bo‘lib ketganidan terlab, chanqagan edi. Sholcha yozilmagan yaydoq so‘rida choy ichib o‘tirganlar oldidan o‘tib ichkariga kirayotgan edi, g‘alati bir gap eshitib to‘xtadi. Deraza tarafga qarab o‘tirgan yigit nimadir deyapti. Ikromjon tarafga qarab o‘tirgan keksaroq kishi unga yuz-ko‘zi bilan qandaydir ishora qildi. Yigit uning ishorasiga tushunmadni, gapini davom ettiraverdi:

– ...Dunyoning ishlari qiziq ekan-da, lekiniga Tog‘a malades, aytmadni. Aytganda Ikrom po‘st tashlavorardi. Bitta-yu bitta bolasi qochoq bo‘lib o‘tirsa-ya. Voy, mening bolam shunaqa qilsa, shartta kallasini uzib tashlardim...

Yigit gapini to‘xtatmaganidan diqqati oshib ketgan hamsuhbati jahl bilan:

– Ey, qo'ysang-chi, qanaqa befahm odamsan, – deb o'midan turib ketdi.

Shundagina yigit o'girilib orqasiga qaradi-da, Ikromjonni ko'rib qizarib ketdi, juda katta gunoh qilib qo'yganini bilib boshini egib o'tiraverdi.

Ikromjon garang bo'lib qolgan edi. Yelkasida og'ir yuk bordek, mashaqqat bilan uning oldiga keldi.

– Nima deding? Ayt, aytaver!

Yigit gap topolmay uning yuziga qarab angraygancha turaverdi.

– Senga aptyapman, – dedi Ikromjon baqirib. – Ayt, nima deding, ayt!

Ikromjon uning yoqasidan bo'g'ib oldi. Birpasda ular ning atrofni odam o'radi. Bu mojaroy ustiga yetib kelgan Tog'a yigit ning tirsagidan tortib Ikromjonning qo'lidan bo'shatdi-da, uni koyidi.

Ikromjon javdirab Tog'aga qaradi:

– Rostmi, Rayim... bu qanaqa gap?

Tog'a unga juda ham bosiq javob qildi:

– Rost gap, do'stim, rost gap.

Birpasda Ikromjonning qaddi bukildi-qoldi. Tog'a atrofni o'raganlarga jahl bilan qaradi. Uning bu qarashidan nima demoqchilagini anglagan kishilar sekin-sekin tarqab ketishdi. Birgina Ummatali Ikromjonning yelkasidan omonat ushlab turardi.

Tog'a Ummataliga qaradi.

– Siz borib kampirni suyuntiring, Ummatali.

Ummatali ikkilanib turdi-da, og'ir-og'ir qadam bosib nari ketdi.

– Bo'ldi, oshnam, – dedi Tog'a titroq tovushda. – Shunaqa bo'lishini bilganimdan aytmagan edim-da. Qandoq qilasan, chidaysan, chidaysan-da, og'ayni!.. – Tog'a shundan boshqa gap topolmadi.

Topshiriq. Matnda qo'llangan transkripson belgilar haqida fikr bildiring.

Bekobod Eski ovul qishlog'i shevasi

Нәмнә джәсдә өстәтәп ғызыр джысы. У Әртабыстан chyshыр kella джолдан shorchaga ғәтер джүгә башлады. Джол джәғ'асыда рахта егүлген едь. У берден paxtazarg'a qarap бүйлә. Нәр бүг түр рахта хүттөн og'an ыйысыр salam берәджаитқандай едь. Бараджатыр узаңта көтәрүлгөн chinch-tozandi көрүр өпләдь. Bu chinch tozan o'gan qarap keleberедь, qarasa бар mashын tola ғызлар келәджааты, Olar avazlaryнын балыча ашыла эйтүр келәдь. О mashын етпәр кеткенчә өзүрап түрдь. Кей Ына кетә bashлады. Олын өсль аль Qoshqar. Нәкъын ортаqlаръ бәзүлләшүр Shaiyr derди. Shaiyr дәғенчайым бар. О нәр заман - бар заманда sherəт джазър түрдә. Qoshqar kech baqqanda үйбәз джетпәр алды, уйзә кыгъы арасын аркынан ауқаттан изгана джер дәнгөн джатыр өпләдь. О джәдәе churchag'н едь. Вүгүп о ғәләба джол джүгүдь, алыг.

Test savollari

1.“Dialekt” so‘zi qaysi tildan olingan va uning lug‘aviy ma’nosini nima?

- A) Fors tilidan olingan bo‘lib, “sheva” ma’nosini bildiradi
- B) Lotin tilidan olingan bo‘lib, ”lahja” ma’nosini bildiradi
- C) Arab tilidan olingan bo‘lib, “ovoz” degan ma’noni bildiradi
- D) Yunon tilidan olingan bo‘lib, “sheva” ma’nosini bildiradi

2.Turkiy tillarning eng qadimgi lahja va shevalarini o‘rganishda qaysi asar dastlabki manba sanaladi?

- A) ”Devonu lug‘atit turk”
- B) ”Qissai Rabg‘uziy”
- C) ”Qutadg‘u bilig”
- D) ”Mahbubul qulub”

3.“Transkripsiya” so‘zi qaysi tildan olingan va uning ma’nosini nima?

- A) Fors tilidan olingan bo‘lib, “sheva” ma’nosini bildiradi

B) Lotin tilidan olingan bo'lib, "qayta yozish" ma'nosini bildiradi

C) Arab tilidan olingan bo'lib, "yozuv" degan ma'noni bildiradi

D) Yunon tilidan olingan bo'lib, "harf" degan ma'noni bildiradi

4. "Sheva" so'zi qaysi tildan olingan va uning lug'aviy ma'nosini nima?

A) Fors tilidan olingan bo'lib, "ravish, tarz, yo'sin" ma'nosini bildiradi

B) Lotin tilidan olingan bo'lib, "lahja" ma'nosini bildiradi

C) Arab tilidan olingan bo'lib, "ovoz" degan ma'noni bildiradi

D) Yunon tilidan olingan bo'lib, "dialekt" ma'nosini bildiradi

5. "Lahja" so'zi qaysi tildan olingan va uning lug'aviy ma'nosini nima?

A) Fors tilidan olingan bo'lib, "sheva" ma'nosini bildiradi

B) Lotin tilidan olingan bo'lib, "lahja" ma'nosini bildiradi

C) Arab tilidan olingan bo'lib, "ravish, tarz, sheva" ma'nosini bildiradi

D) Yunon tilidan olingan bo'lib, "sheva" ma'nosini bildiradi

6. "Lahja" atamasi turk tilida nimaga nisbatan qo'llanadi?

A) qarindosh tillarga nisbatan

B) shevaga nisbatan

C) transkripsiya nisbatan

D) dialektga nisbatan

7. Shevaga xos lingvistik omillar deganda nimani tushunasiz?

A) o'ziga xos leksik xususiyati

B) o'ziga xos fonetik xususiyati

C) o'ziga xos grammatik xususiyati

D) barcha javob to'g'ri

8. O'zbek tili qaysi lahjalardan tashkil topgan?

A) Qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalaridan

B) Qarluq-chigil-uyg'ur, o'g'uz lahjasidan

C) Qipchoq, o'g'uz lahjasidan

D) Qarluq, o'g'uz lahjasidan

9. Qarluq lahjası shevashunos olimlar tomonidan qanday nomlangan?

- A) qarluq-chigil-uyg'ur
- B) chig'atoy, turk - barlos
- C) o'rta o'zbek, qarluq
- D) qarluq-chigil-uyg'ur, chig'atoy, turk - barlos, o'rta o'zbek

10. Qarluq lahjasini A.K.Borovkov qanday atama bilan nomlagan?

- A) qarluq-chigil-uyg'ur
- B) chig'atoy
- C) turk - barlos
- D) o'rta o'zbek

2-seminar mashg'uloti

Fonetik tahlil. Shevaga oid matnlarning fonetik xususiyatlari.

Berilgan nazorat savollariga javob bering:

1. O'zbek xalq shevalarida unli fonemalar soni qancha?
2. O'zbek shevalari unlilarning lablanish-lablanmaslik jihatidan qanday farq qiladi?
3. Cho'ziq unlilar mustaqil fonema sifatida qaysi shevalarda saqlanib qolgan?
4. Ikkinchisi darajali cho'ziq unlilarning yuzaga kelish sabablari haqida gapiring.
5. Yuqori, yuqori-o'rta ko'tarilish unli fonemalari haqida ma'lumot bering.
6. Lablangan unli fonemalarga ta'rif bering.
7. Quyi ko'tarilish unli fonemalari sirasiga o'zbek shevalaridagi qaysi unlilar kiradi?
8. O -lashish hodisasining yuzaga kelish sabablari haqida so'zlab bering.
9. «A» unli boshqa unli fonemalardan qaysi xususiyatiga ko'ra farqlanadi?

10. O'zbek xalq shevalari konsonantizmiga umumiy ta'rif bering.

11. O'zbek xalq shevalarining undosh fonemalari qaysi jihatlariga ko'ra tasnif qilinadi?

12. Shevada singarmonizmning qaysi turi qo'llaniladi: a) palatal singarmonizm saqlangan so'z va grammatick shakllar qatnashgan ikki jumla yozing; b) labial singarmonizm elementlarini saqlagan so'z shakllariga beshta misol yozing.

13. Diftong unlilar bormi? Diftonglashishning qanday shakllari uchraydi?

14. Adabiy tildagi jarangsiz undoshlar shevada qaysi o'rinda jaranglilashadi? Misollar yozib, sharhlab bering.

15. Adabiy tildagi jarangli undoshlar shevada jarangsizlanishiga ham misollar keltiring.

16. Adabiy tilda so'z boshida qatnashadigan undoshlar shevada qaysi undoshlar bilan almashishi mumkin? (masalan, doprъ-to'ppъ).

17. H undoshi talaffuzda bormi? U qaysi o'rirlarda o'zining adabiy tildagi mavqeyini saqlab qoladi? Misollar keltiring.

18. Adabiy tildagi F undoshi shevalarda qanday variantlarga ega bo'ladi? Misollar yozing.

19. B undoshi v va p ga o'tishi mumkinmi? Misollar yozing.

20. Umlaut hodisasiga (ot-ətə) misol keltiring.

21. Sheva "y" lovchi shevami yoki "j"lovchimi? So'z boshida "y" yoki "j" qatnashgan o'nta misol yozing.

22. Qo'shma so'zlarda fonetik o'zgarishlar yuz beradimi?

23. So'z boshida, o'rtasida va oxirida tovush orttirilishiga misollar keltiring. Masalan, *ayvon-həyvən*, *uzum-ūyzym* va b.

24. So'z urg'usining turli turkumlardagi so'zlar bo'g'inlariga tushishiga misol keltiring.